



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№12
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 252 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari	26
Xuseynova Abira Amanovna	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
Abdurasulova Gulrux Habibullayevna	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari	40
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinov Elyorjon qizi	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
Asatova Dildora Aslamovna	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna	
Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi	52
Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	56
Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
Mirxalilova Nargiza Akbarovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish	63
Mitaliboyeva Dildora	
Koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish	66
Nartayeva Shahnova Yulchibayevna	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
Normatova Nilufar Komilovna	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish	80
Qodirov Jurabek Mamatsimonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model	83
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	
"Sab'ai sayyor" asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar	87
Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri	91
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	99
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli	102
Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	106
Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili	109
<i>Xusanov Samariddin Maxmadaminovich</i>	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari	112
<i>Yarashev Jo'rabek To'rayevich</i>	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки	117
<i>Габдулманова Ильнура Минисламовна</i>	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов	119
<i>Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи</i>	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....	124
<i>Уразова М. Б., Усманова У. Б.</i>	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–маҳалла" в Узбекистане ..	130
<i>Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли</i>	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....	135
<i>Юсупова Зулайхо Бахром кизи</i>	
Valeologik tarbiyada o'yin texnologiyalarining ahamiyati.....	139
<i>Berkinova Charos Islomovna</i>	
O'quvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasi tushunchasi, mazmuni va shakllanishi	142
<i>Buvorayeva Gulruh Shoikrom qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	145
<i>Cho'tboyeva Munisxon Eshpo'lat qizi</i>	
Tabiatga muhabbat: maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va o'yinlar orqali ekologik tarbiya	150
<i>Ergasheva Umrinisso Komilovna</i>	
Zamonaviy ta'lim – talabalar ijtimoiy intellektini shakllantirish omilidir.....	153
<i>Ermatova Gulnoz Pirimovna</i>	
O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'qitishda pedagogik texnologiyaning o'rni	156
<i>Gazibekova Feruza Hakimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli texnologiyalar muhitida tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish metodikasi	159
<i>Haydarova Feruza Haydar qizi</i>	
Talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar va sifatlarni shakllantirish mexanizmi.....	162
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda interfaol metodlarni qo'llash texnologiyasi.....	165
<i>Jumayeva Malika Aliyevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish.....	168
<i>Lutfetdinova Ra'no Xusnetdinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik rivojlanishga zamonaviy yondashuvlar va jahon tajribalari ..	172
<i>Masharipova Barno Erkin qizi, Adilbayeva Dilnoza Adilbay qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'yinlari texnologiyalarining nazariy asoslari.....	175
<i>Masharipova Difuza Muxammadjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi	178
<i>Muhammadiyeva Feruza Turakulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish metodikasi	181
<i>Muhiddinova Munira Xayrullayevna</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matematika fanini o'qitishda raqamli transformatsiya vositalaridan foydalanishning metodik paradigmasi	184
<i>Narzullayeva Sevara Omonovna</i>	
O'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	187
<i>Nizamova Nodira Paxritdinovna</i>	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuniy izohlanishi	191
<i>Oysha Qurbonova, Nodira Abduraimova</i>	



Boshlang'ich ta'limda Finlandiya tajribasi	195
Nodira Sherboyeva	
Kutubxonachi kutubxona-axborot xizmati jarayonining yetakchi ishtirokchisi sifatida	198
O'ktam Nosirov	
Pedagogik ta'lim transformatsiyasida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi	204
Rustamova Shoxista Omonjonovna	
Globallashuv sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish masalalari	208
Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishning zamonaviy innovatsion texnologiyalari	212
Sa'dullayeva Rushana	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	215
Saidova Dilbar Erkinovna	
Pedagog xodimlarda tolerantlik namoyon bo'lishining determinantlari	218
Sattorova Maxliyo Dilmurod qizi	
Kreativ metodlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkur va fikrlashni rivojlantirish	223
Sultonboyeva Baxriniso Ilhomjon qizi	
Artpedagogika texnologiyalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish metodikasi	226
Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich ta'limda yashil kompetensiyalarni shakllantirish yo'nalishlari	229
Yaqubova Shoiratog'aymuratovna	
Emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy asoslari	233
Yarmatov Raximboy Baxramovich	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	239
Zokirova Sohibat Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык	242
Марупова Дилфуза Давроновна	
Oliy ta'limda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining maqsad va vazifalari	247
F. R. Xosilova	



O'QITUVCHINING MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nizamova Nodira Paxritdinovna

Profi university nodavlat oliy ta'lim muassasasi
Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni, pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilingan. Muloqot madaniyati – o'qituvchining kasbiy mahoratining muhim tarkibiy qismi sifatida qaratiladi. Unda pedagogik faoliyatda samarali muloqot usullarini yo'lga qo'yish, o'quvchilar bilan sog'lom psixologik muhit yaratish, empatiya, tinglay olish va madaniyatli fikr almashish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini, psixologik barqarorligi va ijtimoiy-emotsional kompetensiyasi muloqot jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida ilmiy mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: muloqot madaniyati, munosabat, empatiya, pedagogik takt, hurmat, muhit, insoniylik.

Abstract: The article analyzes the process of formation of a teacher's communication culture, its pedagogical and psychological foundations. The culture of communication is considered as an important component of the professional skills of a teacher. The necessity of establishing effective methods of communication in pedagogical activity, creating a healthy psychological environment with students, and developing such skills as empathy, the ability to listen, and the civilized exchange of ideas is substantiated. Scientific considerations are given on how the personal qualities of a teacher, his psychological stability and social-emotional competence influence the learning process.

Key words: culture of communication, attitude, empathy, pedagogical tact, respect, environment, humanity.

Аннотация: В статье анализируется процесс формирования культуры общения педагога, её педагогические и психологические основы. Культура общения рассматривается как важная составляющая профессионального мастерства педагога. Обосновывается необходимость установления эффективных методов общения в педагогической деятельности, создания здоровой психологической среды с учащимися, развития таких навыков, как эмпатия, умение слушать, цивилизованный обмен идеями. Приводятся научные соображения о том, как личностные качества педагога, его психологическая устойчивость и социально-эмоциональная компетентность влияют на процесс обучения.

Ключевые слова: культура общения, отношение, эмпатия, педагогический такт, уважение, окружающая среда, гуманность.

KIRISH

Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat hamda muomala madaniyati ularning fe'l-atvori, xulqi va olgan tarbiyasining amaliy hayotda namoyon bo'lishini bildiradi. Kishining madaniyati, avvalo, uning muomalasi va atrofdagilar bilan munosabatida ko'zga tashlanadi. O'qimishli, madaniyatli o'qituvchi hamkasbidan yoki o'quvchisidan nimani qanday so'rashni, u yoki bu masala yuzasidan murojaat qilish mumkinmi-yo'qligini, oilaviy munosabatlarga oid masalalarga munosabat bildirish zarurati bormi-yo'qligini yaxshi anglaydi. Muomala jarayonida suhbatdoshning kayfiyatini ko'tarish, unga optimistik ruh bag'ishlash, unda o'z kuchiga ishonch hosil qilish o'qituvchining eng muhim sifatlaridan biridir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tom ma'nodagi muomala madaniyatiga ega bo'lgan o'qituvchi shuhratparastlik, manmanlik, befarqlik, hasadgo'ylik, g'iybatchilik kabi illatlarga toqat qilmaydi va ularga qarshi kurashadi. O'qituvchining muomala madaniyatining tarkibiy qismi nutq madaniyati bilan bog'liq, chunki nutq va unda ifodalangan so'z kishiga ta'sir etuvchi qudratli psixologik kuchga ega. Uni faqat mazmuni bilan emas, balki so'zlovchining aytilayotgan fikrni ifoda etish uslubi orqali ham ta'sir darajasi va qudratini yanada orttirish mumkin. Ingliz dramaturgi B. Shou aytganidek, "Ha" so'zini aytishning 50 dan ortiq uslubi, "Yo'q" so'zini aytishning ham shuncha uslubi bor, ammo bu so'zni yozishning faqat bitta uslubi mavjud. Bu fikr zahirida muloqot madaniyatiga doir juda nozik qochirim va ma'no yashiringan. O'qituvchi muloqotining negizida so'z va fikr turar ekan, fikrni bayon etish ifodasi har bir o'qituvchining saviyasi, ma'naviy dunyosi va madaniyatiga asoslanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Imom at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Sufi Olloyor, Sulaymon Boqirg'oni kabi mutafakkirlarning bebaho merosini, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Mirzo Ulug'bek, Amir Temur, Bobur, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabi allomalarning jahon fani va madaniyatiga qo'shgan bebaho hissalarini o'rganish, shu asosda yosh avlodni tarbiyalash zarurligi ta'kidlanadi. Yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda islom ta'limotining ahamiyati katta. Islom dini – bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham imyon, ham diyonat, ham ma'rifatdir.

Insonga xos olijanob sifatlardan yana biri kechirimli bo'lishdir. Bu sifat keng qalbli, birovlarining adovati va aziyatiga chiday oladigan kishilarda bo'ladi. Insonlar ko'pincha xato qiladilar va xatolarning kechirilishiga muhtojlik sezadilar. "Yomonlikni yaxshilik bilan qaytaranglar", deyiladi. Kishilar o'rtasidagi munosabatlarda ko'pgina muammolar o'ylamasdan, ehtiyotsizlik bilan aytilgan qo'pol so'zdan kelib chiqadi. O'qituvchining chiroyli so'zi esa yaxshi muomala, mehr-oqibat kalitidir. O'qituvchi shirinso'zligi va xushmuomalaligi shartlaridan biri – ovozni baland ham, past ham qilmay, me'yorida gapirishdir. Shirinso'zlik va go'zal munosabat hech qachon, hech qayerda sotilmaydi. Bunga erishmoqlikning yagona yo'li – tinimsiz shirin so'zni mashq qilish, kitob o'qish va axborotlarni tinglash, ko'p eshitish va tahlil qilishdir. Muomala o'qituvchining kimligini ko'rsatuvchi ko'zgudir.

Pedagogik mahorat fani o'qituvchisining maqsadlaridan biri – komil insonni o'qitish va tarbiyalash natijasidir. Komil inson g'oyasi – ham milliy, ham umumbashariy mohiyat va qadriyatlarga ega, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir. Komil insonni tarbiyalash g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Barkamol inson haqidagi yuksak, umuminsoniy g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida ayniqsa teran ifoda etilgan. Hazrat Navoiy "Kamol et kasbim, olam uyidin senga farz o'lmagay g'amnoq chiqmoq. Jahondin notamom o'tmak bi-aynix, erur ham nomdin nopok chiqmoq", degan fikrlari bilan har bir inson komillikni o'ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi. Alisher Navoiy (1441–1501) "Hamsa" asarining ikkinchi dostoni – "Farhod va Shirin"da Farhod timsoli orqali 10–11 yoshgacha bo'lgan yosh avlodning muloqot madaniyatini shakllantirishga doir qarashlarini bayon qilgan.

Unga ko'ra, Farhod maxsus ustoz qo'lida 5 yoshgacha jismoniy o'sdi, ot minish, kamon otish kabi turli mashqlarni o'rgandi, 5–10 yoshlar oralig'ida bilim va axloq o'rganib yetuk bo'ldi. Bu o'rinda Navoiy yosh avlod ijtimoiy ko'nikmalarining negiziga jismoniy yetuklik, zamon ehtiyojlariga moslik, bilimdonlik va axloqiy fazilatlikni qo'yganini ta'kidlash lozim. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat va o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot olib borish yo'llari xilma-xil sanaladi. Shuningdek, dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro muloqot, munosabat va mehnat faoliyati, bilish, muloqotchanlik xususiyatlarini shakllantirishga alohida yondashish zarur sanaladi. Biz ular haqida ko'p gapiramiz, tahlil qilamiz, biroq aql-hushni bir yerga to'plab astoydil o'ylab ko'radigan bo'lsak, g'aroib bir manzaraga duch kelamiz. Inson mehnat faoliyatining shakl va usullarini o'rganish uchun ko'p vaqt ajratadi, dunyoni bilish usullarini o'rganish uchun ham ko'p vaqt sarflaydi, biroq insonlararo muloqotga hech kim hech qayerda maxsus o'rgatilmaydi. Bizda muloqot qilishning murakkab san'atiga o'qitadigan maktab hozircha yo'q, u bevosita ish jarayonida shakllanib boradi.

Tasavvur qiling, siz sinfga kirib keldingiz. Pedagogik muloqotning yozilmagan ushbu qonunlarini yana bir bor eslatamiz. Birinchidan, pedagogik jarayon o'quvchilar bilan munosabatimizga asoslanadi; aynan shu munosabatlar pedagogik o'zaro ta'sirda birlamchidir, har bir pedagogik harakatga takrorlanmas shaxsiylik ma'nosini beradi, o'quv materiali yoki pedagogik talabni takrorlanmas hissiyotlar bilan boyitadi. Bularsiz bola qalbi sirini anglab bo'lmaydi. O'zingizning bolalar bilan munosabatingiz haqida doimo o'ylang, bu munosabatlarni maqsadga yo'naltirilgan holda boshqaring, ular pedagogik jarayonga va har bir bola shaxsiga muntazam ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, pedagogik muloqotni tashkil etishda faqat pedagogik maqsadlarga berilib ketmaslik lozim. Bunday cheklanish o'qituvchining o'z tashabbusi bilan muloqot qilishi, so'zlarida hukmronlik ohangi paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday holatda o'quvchi o'qituvchi harakat doirasidan tashqarida qoladi. Mashhur pedagoglarimiz ta'kidlaganidek, ko'pincha biz o'qituvchilar bolalarni faqat bizga ma'qul bo'lgan narsalarni bajarishga majbur qilamiz, ularning ko'ngliga qarab ish yuritish esa pedagogik faoliyatdan chetda qoladi. Shuning uchun muloqotda o'qituvchi tashabbusidan ko'ra "bola tashabbusi"ni tanlash ma'qul. Uchinchidan, pedagogik muloqotni tashkil qilar ekanmiz, nutqimizni bir bola yoki o'quvchilar guruhiga aniq yo'naltirishga harakat qilishimiz kerak. Bunday yondashuv ta'lim va tarbiyaning to'g'ri usullarini tanlash kabi muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'qituvchining muloqot madaniyati nafaqat shaxslararo munosabatlarga, balki shu bilan birga ishlab chiqarish, mehnat jamoasi, jamiyat hayotiga ham kerakligini hisobga oladigan bo'lsak, bugungi kunda o'quvchi va talabalar fe'l-atvorini o'rganish, ularni bir-birlariga mehr-muruvvatli bo'lishga o'rgatish, diniy aqidaparastlik tomir otayotgan hozirgi davrda jamiyatni insonparvarlashtirish naqadar dolzarbligini anglash mumkin. Umuman



olganda, muloqot madaniyatini takomillashtirish umuminsoniy ehtiyoj sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Atoqli adib B. Shou so'zlari bilan aytganda: "Biz hozir havoda qush kabi uchishni, suvda baliq kabi suzishni o'rganib olgan bo'lsak-da, bizga bir narsa – insonlardek yashashni o'rganib olish yetishmaydi". Artur Konan Doyl asarining qahramoni, mashhur izquvar Sherlok Xolms ta'kidlaganidek: "Har bir inson o'z xususiyatiga ko'ra hal etilmaydigan jumboq"dir. Kishilar xulqi va fe'l-atvori bilan bir-birlaridan farq qiladilar, ammo ular orasidagi o'xshashlik ma'lum darajada saqlanib qoladi. Demak, shaxsning tashqi turqi-tarovatigina emas, balki ichki olami, maslagi, insoniy qiyofasi, hozirgi ko'rinishi uzoq tarixiy kamolot natijasidir. Bu kamolot zahirida esa kishilar o'rtasidagi muloqot hamda muomala madaniyati turganligi sir emas. Shu sababli o'qituvchining muloqot madaniyatida oqilona ehtiyojni anglab olish muhim vazifadir. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot olib borish yo'llari muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining ish faoliyati davomida o'quvchilar bilan muomala munosabatlari katta o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat to'plagan bilimlarni, muomala qilish tajribalarini o'zlashtiradi. O'qituvchi esa pedagogik jarayonda asosiy shaxs bo'lib xizmat qiladi, chunki unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. O'qituvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urf-odat mezonlaridan saboq beradi. O'quvchilar muomala odobini, muloqot olib borish yo'llarini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladilar. Muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qoladi. O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi talablardan biri bolaning xulqini, muomalasini, bola bajargan ishni odilona va to'g'ri baholashdir. Pedagogik faoliyatda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotning muhim sohalaridan biri hisoblanadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning turi nihoyatda ko'p bo'lib, o'qituvchi tomonidan muloqot jarayonida bu ishlarning xususiyati, bajarish jarayoni va natijasi haqida to'liq tushuntirishiga bog'liqdir. Muloqotlar jarayonida o'qituvchi ayrim talablarga rioya qilishiga to'g'ri keladi: o'z ishi jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchining qadr-qimmatini inson sifatida hurmat qilishi, o'quvchiga nisbatan ishonchi; bolaga mehribon, g'amxo'r bo'lishi, shodligiga ham, tashvishlariga ham sherik bo'lishi; bolalar bilan har qanday muloqot jarayonida alohida yondashish, pedagogik taktni saqlash. O'qituvchi faoliyatida sharqona umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari va boshqa hujjatlarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yosh avlodda nutq madaniyati malakalarini shakllantirish va takomillashtirish masalalariga katta e'tibor berilayotganidan bir vaqtda ushbu vazifalarni maktab o'qituvchilari, o'quv yurtlarining pedagog xodimlari, professor-o'qituvchilar amalga oshiradilar.

Shu bois pedagog xodimlar o'zlarining kasbkor sha'ni va qadr-qimmatlarini himoya qilishlari, odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, bola, o'quvchi va talaba, o'qituvchi-o'quvchi shaxsining qadr-qimmatini asrashlari; bolalarni mehnatga, qonunlarga, ota-onalarga, ma'naviy-tarixiy, madaniy-milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari, ibratli faoliyatlari va shaxsiy namunalari bilan umuminsoniy axloq qoidalariga – haqiqat, adolat, vatanparvarlik, yaxshilik va boshqa xayrli xislatlarga nisbatan e'tiborni qaror toptirishlari lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nutqni aniq yo'naltirish zarur deganda nimani nazarda tutmoq kerak? Avvalo, o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, uning sinfda, sinfdoshlari bilan munosabatda egallaydigan o'rnini hisobga olish darkor. Shunga muvofiq, nutqni tez ifoda etish, fikrlarning ketma-ketligiga erishish, uning mantiqqa to'g'ri kelishini e'tiborga olish o'qituvchining asosiy vazifasidir. Shuni ham ta'kidlash joizki, pedagogik jarayondagi muloqotni faqat bir vazifa, ya'ni axborot bilan cheklash mumkin emas. Bu yo'lda muloqotning bir turidan – axborot ayirboshlash, o'zaro munosabatlarni tashkil qilish, bola shaxsini o'rganish, kattalar va bolalarning bir-biriga ta'sirini hisobga olish va boshqa vositalardan foydalanish lozim. Biz pedagogik muloqotdagi mavjud yo'nalishlardan biriga bilib-bilmay amal qilmasligimiz mumkin, biroq buning oqibati ertasigayoq ko'zga tashlanadi, tarbiya natijalarida uzilish yuz beradi. Shunday holning yuz bermasligi uchun o'qituvchi bola shaxsini o'rganib borishi zarur. Bolalar bilan munosabatga kirishar ekanmiz, muloqotni, ya'ni yuqoridan pastga qarab tashkil qilishdan saqlanishimiz kerak. Hatto juda kichik yoshdagi bolalar ham mustaqil ekanliklarini isbotlashga harakat qilishadi. O'qituvchilik diplomi bolalar bilan munosabatda yetakchi bo'lish huquqini bermaydi. Bunday huquqni qo'lga kiritish uchun o'quvchilar jamoasida tutadigan o'rni, bu o'qituvchining rasmiy obro'si emas, balki uning insoniyligi bilan belgilanadi. Bolalar bilan o'zaro munosabatni shunday yo'lga qo'yish kerakki, yetakchilik mavqei tabiiy ravishda pedagogik jarayon mantiqidan kelib chiqsin.

Sinfdagi ruhiy muhitni sezishga harakat qilishni o'rganish lozim. Chunki o'qituvchi sinfdagi ruhiy holatni bilmas ekan, o'quv-tarbiya jarayoni mahsuldor bo'lmaydi. O'qituvchi har bir shaxs ko'nglidagi sirlarni topishga yordam berishga harakat qilishi hamda bunday malaka va ko'nikmalarni o'zida shakllantirishi kerak. Masalan, sinfda matematika darsi bo'lmoqda. O'qituvchi o'quvchilarni yangi material bilan tanishtirmoqda. Matematikaga qiziqadigan bir o'quvchi matematikani yaxshi ko'rgani uchun darsga quloq solib tinglab turibdi. Ikkinchi o'quvchi esa quloq solish bilan kifoyalanib, ikki ko'zini javob beradigan o'quvchiga tikkanicha o'tiribdi, u chiroyli yoki emasligi haqida o'ylayapti. Xuddi shu dam matematikani uncha xushlamaydigan, ammo sportni jondilidan

sevadigan uchinchi o'quvchi yonidagi o'quvchiga kechagi sport o'yini haqida gapirib bermoqda. Matematikaning "M" harfini ham tushunmaydigan boshqa o'quvchining ko'zi tashqaridagi qorga tushdi. Agarda o'quvchilarning shu xususiyatlarini birma-bir tahlil qilsak, darsning ruhiy vaziyatlari son-sanoqsizligini ko'ramiz. Biroq har xil dars o'tganda unga bugungi kun nuqtai nazaridan yondoshish kerak bo'ladi. Aytaylik, bolalar bilan suhbatda kechagi kun mavzusi takrorlanishi mumkin, bunda mavzudagi arimas bo'lib tuyulgan o'zgarish suhbatni butunlay boshqa ma'lumotlar bilan boyitib yuboradi. Shuning uchun sinfdagi ruhiy vaziyatni nazorat qila bilish juda ahamiyatlidir: buning uchun o'quvchilarni kuzata bilish, o'quvchilar ko'zidagi ifodani, ularning mimikasi va ko'rinishidagi o'zgarishlarni tushuna bilish, o'quvchilar xulqidagi o'zgarishlar, kayfiyatidagi barcha o'zgarishlarga e'tibor berish, sinfnig o'zini tutishiga nisbatan munosabat bildirishda yumshoqlik va hozirjavoblik ko'rsatish, sinfdagi bugungi ruhiy muhitni kechagisi bilan qiyoslab, garchi doimo o'zgarib turgan bo'lsa-da, umumiy ruhiy holatini topish zarur.

Har bir o'qituvchi o'ziga bolalar ko'zi bilan qarashni o'rganishi lozim. Buning uchun o'z faoliyatini tez-tez tahlil qilishi, o'quvchilar o'rniga o'zini qo'yishga harakat qilishi, ustozlarning darslarini kuzatishi va o'zini ularga qiyoslashi, o'zida qaysi nuqsonlar bolalar bilan ishlashga salbiy ta'sir etayotganligini aniqlashi, xatolarni ochiq tan olishi, biron narsani bilmaganda uni ochiq aytishdan uyalmasligi kerak. Mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarda bolalar bilan suhbatlashishni odat qilish, agarda sinfda o'qituvchiga laqab qo'yishgan bo'lsa, undan xafa bo'lmaslik, bafurja o'tirib bu laqabning kelib chiqishi va mohiyatini aniqlashga harakat qilishi lozim.

O'quvchilarning har qanday savoliga javob berish va so'zlarini tinglashga intilish zarur. Agarda o'quvchi noto'g'ri gapirayotgan bo'lsa yoki fikrini bayon qilishga qiyalayotgan bo'lsa, o'qituvchining vaqti ziq bo'lgan taqdirda ham unga etarlicha javob berib, qolganlarini kelgusi safar birgalikda muhokama qilishini aytib ogohlantirishi kerak. Bunday ta'sir bola shaxsiga e'tiborning eng muhim ko'rsatkichidir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning faol emasligining asosiy sababi – o'qituvchilarning bolalarning so'zlarini oxirigacha tinglay bilmastir. Shuning uchun o'qituvchi quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha o'zini sinab ko'rish shart:

- o'quvchini oxirigacha eshitishga doimo qodirmisiz;
- o'quvchi gapirayotganda uni to'xtatishga ishtiyoq tug'ilmayaptimi;
- o'quvchi biron narsani bayon qilayotganda ortiqcha so'zlarni ko'p ishlatga, tutilib-tutilib gapirsa jahlingiz chiqmaydimi;
- bola gapirayotganda unga xayolan qo'shilayotganingiz seziladimi;
- o'quvchilar javobiga kattalarga xos talablar qo'yayotganingizni sezganmisiz?

O'qituvchi bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'yar ekan, ularning kayfiyatini tushunishga intilishi, sinfdagi psixologik holatni ilg'ab olishga harakat qilishi juda muhim. Shuni esda tutish lozimki, pedagogik jarayon ruhiy kechinmalari harakatchan, o'suvchan va o'zgaruvchandir. Bu holat o'qituvchidan qabul qilishda yuksak madaniyatni talab qiladi. Muloqotdagi ruhiy vaziyat, o'quvchi kayfiyatining o'zgarishi sinfdagi ahvol haqida zarur axborot beradi, shu bilan birga ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashga ham ta'sir ko'rsatadi. Sinfda muntazam "ruhiy kuzatish", bolalar ruhiy holatini aniqlash o'zaro ta'sirning eng aniq vositalarini tanlash imkonini beradi. O'quvchilar, ayniqsa o'smirlar, o'zlarini shaxs sifatida tan olishlarini istaydilar, shuning uchun muloqot jarayonida ularga shaxs sifatida qarash lozim. Esda tutish kerakki, sinf bilan yillar davomida muloqot jarayonida muloqotning ma'lum qolipi shakllanadi, ammo bolalar o'zgaradi, voyaga etadi, biz esa eskicha ishlashni davom ettirsak, bu turli qarama-qarshiliklarga olib keladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, o'qituvchining o'quvchilarning yosh xususiyatlari o'zgarishi va ustozlarning o'zgarimas pedagogik muloqot shakli o'rtasida paydo bo'ladigan qarama-qarshiliklar o'zaro munosabatlarning uzilishiga, natijada o'quv-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy-ruhiy ehtiyojlaridagi eng mayda o'zgarishlarni sezishga intilishi lozim. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni samarali tashkil etish maqsadida kommunikativ tayyorgarlik ko'rish zarur sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalq ta'limi jurnali. – 2003-yil. – № 3. – B. 49.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Darslik. – Toshkent, 2011-yil.
3. Navoiy A. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1983-yil. – 534 b.
4. Кан-Калик В. А., Никандров Н. Д. Педагогическое творчество. – Москва: Педагогика, 1990-год.
5. Hasanboyev J., To'raqulov B. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2005-yil.
6. Jalolov J. Til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996-yil.
7. Ziyomuhhammadov B., Xoliqov A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2009-yil.
8. Jalolov J., Mavlonova R., Xasanboyeva O. Pedagogika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2012-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.